



BARQAROR TARAQQIYOTDA AYOLLAR: ILM-FAN VA SIFATLI TA'LIM

WOMEN IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT: SCIENCE AND QUALITY EDUCATION

XALQARO ILMIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMI



O'zbekiston Respublikasi
**OLIY MAJLISI
SENATI**



**Toshkent davlat
sharqshunoslik
universiteti**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



**O'zbekiston Respublikasi
Fanlar Akademiyasi**



**O'zbekiston
Xotin-qizlar qo'mitasi**



**YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI**



Erasmus+



**Abdulla Qodiriy
Ijod maktabi**

TOSHKENT - 2023

<i>Bonu Sarimova</i>	A WOMAN SCIENTIST'S RESEARCH FOR QUALITY EDUCATION	459-463
<i>Ra'no Nosirova</i>	NODIRABEGIM - QO'QON MADANIYATI HOMIYSI	464-469
<i>Oydin Nurullayeva</i>	TUG'RUQ TRAVMALARI - NOGIRONLIKKA SABAB BO'LUVCHI OMILDIR	470-474
<i>Sabrina Salimova</i>	ISLOM OLAMIDAGI FOTIMA ISMLI AYOLLARNING ILMGA BO'LGAN RAG'BATI	475-480
<i>Farzona Tajimatova</i>	YANGI O'ZBEKISTONDA AYOLLARGA E'TIBOR HAMDA YURTIMIZNING TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANISHIDA ULARNING O'RNI VA AHAMIYATI	481-486
<i>Моҳинур Розубаева</i>	ЖЕНЩИНЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ: НАУКА И КАЧЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ”	487-493
<i>Zarnigor Xoliqova</i>	YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA LIDER AYOLLARNI TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	494-501
<i>Zarnigor Safarova</i>	TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINI O'RGANISH: TIL VA JINS FARQLARI VA O'XSHASHLIKLARI	502-541
<i>Рустам Джумаев Камола Саидова</i>	ПРИОРИТЕТ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА	509-513
<i>Asilbek Madolimov</i>	O'ZBEKISTONDA ILM-FANDA AYOLLARNING O'RNI VA ULARGA YARATILGAN IMKONIYATLAR	514-518
<i>Мухлиса Жумаева</i>	МАМЛАКАТИМИЗДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ	519-523
<i>Barno Xalmatova</i>	TIBBIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY IMMITATSION O'QITISH USULLARINING O'RNI	524-531
<i>G.X Bakiyeva, M.N Israilova</i>	TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA LOTIN TILI O'QITISHNING HOZIRGI DOLZARB MUAMMOLARI	532-535
<i>Зулфия Пулатова</i>	ЁЗУВ МАЛАКАСИНИ БАҲОЛАШ МЕТОДИ (ЮРИДИК ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ МИСОЛИДА)	536-544
<i>Shaxnoz X. Samiyeva</i>	OLIY TA'LIMDA KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QITISH SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI	545-551
<i>Нигора Хайдарова</i>	АНИМАЦИЯ САНЪАТИНИ ЎҚИТИШДА СИФАТЛИ БАДИИЙ ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИЯ	552-557



WOMEN IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT: SCIENCE AND QUALITY EDUCATION

3RD INTERNATIONAL CONFERENCE



OLIV TA'LIMDA KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QITISH SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI

Shaxnoz X. Samiyeva

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

samieva-1978@mail.ru

<p>Kalit innovatsiya, yondashuv, pedagogik faoliyat, uzluksiz ta'lim, ijodiy jarayon</p>	<p>so'zlar: kreativ pedagogik faoliyat, ijodiy jarayon</p>	<p>Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limda zamonaviy islohotlarni amalga oshirish, ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, iqtisodiyotning yuqori cho'qqilarga ko'tarilishi jarayonida kreativ yondashuvlar va innovatsion pedagogik faoliyatning o'mi to'g'risida fikr yuritilgan. Yoshlar ijtimoiy ma'noda ham kuchli, ham zaif jihatlarni o'zida mujassamlashtirgani uchun ularga, bir tomondan, ijtimoiy faollik, yuqori darajada ta'sirchanlik va yangiliklarga intiluvchanlik, ideallarga bo'lgan ehtiyoj, olamni, borliqni ijodiy qayta qurishga tashnalik, qiziqqonlik xos bo'lsa, ikkinchi tomondan sabrsizlik, bemulohaza tanqid qiluvchanlik, barcha narsani inkor etish jihatlari ko'zga tashlanadi. Bu esa bo'lajak mutaxassislarni zamon talablarini hisobga olgan innovatsion faoliyatga yo'naltirgan holda raqobatdosh qilib tayyorlashni talab etadi.</p>
---	---	--

INNOVATIVE DIRECTIONS OF IMPROVING THE QUALITY OF TRAINING ON THE BASIS OF CREATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION

<p>Key words: innovation, creative approach, pedagogical activity, continuing education, creative process</p>	<p>Abstract: This article examines the implementation of modern reforms in higher education, the use of innovative technologies in the education system, creative approaches and the role of innovative pedagogical activity in the process of lifting the economy to the top. Since young people in the social sense embody both strengths and weaknesses, they are characterized, on the one hand, by social activity, a high level of affectivity and desire for innovation, the need for ideals, and on the other hand, criticality, denial of everything. This requires competitive training of future specialists focused on innovative activities, taking into account the requirements of the time.</p>
--	--

ИННОВАЦИОННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Ключевые слова: инновация, творческий подход, педагогическая деятельность, непрерывное образование, творческий процесс.	Аннотация: В данной статье рассматривается реализация современных реформ в высшем образовании, применение инновационных технологий в системе образования, креативные подходы и роль инновационной педагогической деятельности в процессе подъема экономики к вершинам. Поскольку молодёжь в социальном смысле воплощают как сильные, так и слабые стороны, им присущи, с одной стороны, социальная активность, высокий уровень аффективности и стремления к инновациям, потребность в идеалах, а с другой критичность, отрицание всего. Это требует конкурентной подготовки будущих специалистов, ориентированных на инновационную деятельность с учетом требований времени.
---	---

Hozirgi kunda jamiyatdagi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot tobora ko'proq innovatsiyalarga asoslangan bilimga tayanib, ushbu jarayonni amalga oshirish oliy ta'lim muassasalari oldiga muhim vazifalarni yuklamoqda. Bugungi innovatsiya sohasidagi ilm-fan taraqqiyotining har qanday yutug'i insoniyat mushkulini oson qilishga, uning muammolarini qisman bo'lsada hal etishga xizmat qilishi kerak.

Dunyo bo'yicha oliy ta'limda zamonaviy islohotlarni amalga oshirish, ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, iqtisodiyotning yuqori cho'qqilarga ko'tarilishi kadrlarning kasbiy mahorati va kompetensiyaviy malakasi darajasiga bog'liq. Ma'lumki, ta'limning barcha sohasida kadrlar salohiyatini yuksaltirish, shuningdek, ta'lim-tarbiyada mavjud bo'lgan bo'shliqlarni bartaraf etishdan iborat. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashda o'z bilimini uzluksiz to'ldirib borish va undan kasbiy mahorat hamda ijtimoiy faoliyatda ijodiy foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir.

Mamlakatimizda ijtimoiy institut bo'lgan oliy ta'lim jamiyatning rivoji va farovonligi uchun zarur sharoitdir. U nafaqat har tomonlama, barqaror va ustun bo'lishi, balki tez o'zgarayotgan va kutilmagan globalashtirilgan jamiyatda muammolarni hal etish uchun doimiy rivojlanishi lozim. Bu evolyusiya tizimli, izchil va ko'lamlil bo'lishi kerak. Shu sababli professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar va siyosatchilardan ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida, shuningdek ushbu jarayonning barcha boshqa sohalarida innovatsiyalar kutilmoqda.

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu uzluksiz ta'lim

tizimida va butun hayot davomida har bir shaxsning ijodiy hamda tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi. Bugungi kunda zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, kreativ usullarni qo'llash orqali ta'lim berish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarni xalqaro talablar asosida yangilash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratildi[4, 498].

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasini xalqaro maydonda e'tirof etish, zamonaviy ta'limning sifat jihatlarini yanada oshirish, bu boradagi samarali ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limni zamonaviylashuvi o'qitishda innovatsion texnologiyalarning roli ortib borishi bilan belgilanib, u bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va takomillashtirish xususiyatini o'zgartiradi, o'zlashtirilayotgan fanlar mazmunini rivojlantirish, zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash jarayonini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi [2,804].

Mustaqillik yoshlar turmush tarzida hamda ularning psixologiyasida ham chinakam global o'zgarishlar qildi, yoshlarni yangicha fikrlashga o'rgatdi. Ma'naviy kamol topgan insonlarga barkamol jamiyat qurishlari mumkin, shuning uchun hozirgi kunda yoshlarga jamiyatning tarkibiy qismi va o'ziga xos guruhi sifatida qarab, ularning har tomonlama rivojlanishi va shakllanish holatini shu jamiyat doirasida, uning ichki xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil qilish darkor.

Oliy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik muammolarini yechilishini izlash ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar borishi xususiyatlari, mazmuni, tarkibi va klassifikatsiyasini tekshirish natijalarini tahlil qilish bilan bog'liq.

Yoshlar ijtimoiy ma'noda ham kuchli, ham zaif jihatlarni o'zida mujassamlashtirgani uchun ularga, bir tomondan, ijtimoiy faollik, yuqori darajada ta'sirchanlik va yangiliklarga intiluvchanlik, ideallarga bo'lgan ehtiyoj, olamni, borliqni ijodiy qayta qurishga tashnalik, qiziqqonlik xos bo'lsa, ikkinchi tomondan sabrsizlik, bemulohaza tanqid qiluvchanlik, barcha narsani inkor etish jihatlari ko'zga tashlanadi. Yoshlar turmush tarzi — bu eng avvalo uning real borliq tavsifi, ularning nimalarni bajara olishi mumkinligining tavsifi. Yoshlarning ichki dunyosi ularning turmush tarziga faol ta'sir ko'rsatadi, shu bois yoshlar psixologiyasini, ichki dunyosini bilmay turib ularning hayot uslublarini bashorat qilib bo'lmaydi.

Yoshlarning dunyoqarashini rivojlantirish va ularni aniq hayotiy rejaga va maqsadga yo'naltirish, ayniqsa, o'quvchilik davrida shakllanadi, chunki o'quvchilik davrida kelajakka intiluvchanlik hissi yuqori bo'ladi. To'g'ri tanlangan istiqbol, aniq hayotiy rejalar va maqsadlar

o'quvchilarning ijtimoiy amaliyotidagi ishtiroki bilan birlashib, ularning tajriba va bilim doiralari hamda dunyoqarashlarini kengaytiradi. Buning natijasida ularda mantiqiy mulohazalarga va dunyoqarashga asoslangan umuminsoniy tajribalar to'planadi.

Innovatsiya — bu yangi deb qabul qilingan va amalga oshiriladigan g'oya, amaliyot yoki obyekt bo'lib, u "yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulotni yoki jarayonni, yangi marketing usulini yoki tashkiliy usulni amalga oshirish deb ta'riflanishi mumkin.

“Innovatsiya” tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunoslar o'rganishlarida paydo bo'ldi va bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Uning bu ma'nosi hozirgacha etnografiyada saqlanib qolgan. XX asr boshlarida yangi bilim sohasi-yangiliklarni kiritish, qo'llash yuzaga keldi.

Shu davrga kelib ilmiy adabiyotlarda quyidagi innovatsion jarayonni bosqichlarga ajratish sxemasi mavjud:

1. Yangi g'oya paydo bo'lishi yoki yangilik konsepsiyasi yuzaga kelish bosqichi; uni shartli ravishda fundamental va amaliy ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo'ladigan) natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar.

2. Kashf etish vaqti, ya'ni amalga oshgan obyekt, moddiy yoki ma'naviy mahsulot namuna ko'rinishidagi yangilik yaratish.

3. Yaratilgan yangilikka amaliy ko'payish topilib uni qo'shimcha ishlab mukammallashtirish amalga oshiriladi; bu bosqich yangilik kiritishdan mustahkam samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng yangilikning mustaqil mavjudligi boshlanib, yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga o'tadi, bu bosqich faqatgina yangilikni qabul qilish shartidagina amalga oshadi. Yangilikdan foydalanish davrida keyingi bosqichlar ko'rinadi.

4. Yangilikning tarqalishi uning yangi sohalarga diffuziyalanib (qo'shib) keng tatbiq etilishidan iborat.

5. Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi, bunda xususan yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi. Bu bosqich yangi samarali yangilik paydo bo'lishi yoki uning yanada samarasi bilan almashishi bilan yakunlanadi.

6. Yangilik qo'llanilishi doirasi qisqarib uning yangi mahsuldori bilan almashadi [4,499].

Innovatsion pedagogika – hozirgi davrda norasmiy fan sifatida ma'lum bo'lgan, biroq kun sayin butun jahon soha mutaxassislarining e'tiboriga tushib, jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta'limiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi, olimlar, shu boisdan ham mavjud an'anaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar. Hozirgi kunlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilyapti, uning asosiy vazifasi

hukmron bo‘lib turgan butun o‘quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o‘zlashtirishni talab etmoqda. Innovatsion pedagogika-hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innovatorlar fikriga asosan odatiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo‘l bilan tarbiyalash mumkin emas. Hozirgi pedagogik fandagi vaziyat umumiy holda shundan iborat bo‘lib, bu vaziyatda innovatsiya juda muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan jahon intellektual salohiyatiga to‘laqonli qo‘shila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga bog‘liq. Ushbu vazifalarni amalga oshirish esa bo‘lajak o‘qituvchilarni va ilmiy-pedagog xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etib, uning samarali usullaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga qiziqtirish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yo‘naltirishdan iboratdir. Bu vazifani bajarishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, hozirda ilm-fan va texnika-texnologiyalar kun sayin, soat sayin takomillashib, rivojlanib bormoqda, natijada shunga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug‘ilmoqda.

Bu borada, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda raqobatbardoshlikni ta’minlash, rivojlangan ta’lim tizimini uyg‘unlashish, ta’limda hamkorlikni rivojlantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion rivojlangan qilib shakllantirish masalalari dolzarb vazifalar bo‘lib hisoblanadi [1,67].

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, zamonaviy va sifatli ta’limga bo‘lgan motivatsiyani faollashtirish, oliy ta’limda innovatsion faoliyatning o‘rni va rolini kuchaytirish, ta’lim islohotlarini amalga oshirish jarayonini mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos holda prognoz qilish dolzarb muammo sifatida e’tirof etilmoqda. Bizning mamlakatimizda pedagogik innovatsiyaning rivojlanishi keng jamoatchi-pedagoglar harakatining tez rivojlanishiga bo‘lgan talab va uni pedagoglar amalga oshira bilmasliklari o‘rtasidagi yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq. Shu sababli yangi bilimlarga bo‘lgan talab, “Yangilik”, “Yangi innovatsiya”, “Innovatsion jarayon” tushunchalarini anglash talabi keskinlashdi [3,164].

Yuqorida keltirilgan innovatsion jarayonning bir-birini vaqt bosqichida ketma-ket almashtirib, muntazam tizim uning real rivojlanib borishining soddalashtirilgan sxemasini ifodalaydi. Biror aniq innovatsion jarayon bu bosqichlarni o‘z ichiga olib, ular ketma-ketligi va bog‘liqligiga so‘zsiz rioya qilishi shart emas. Yangilik kiritishni yangilikni yaratish va tarqatish kompleks va maqsadga muvofiq jarayoni sifatida qarab, uning maqsadi inson talab va ehtiyojlarini yangi vositalar bilan qondirish bo‘lib, bu samaradorligi, muntazam va hayotiyligini ta’minlovchi uslub va tizimlarni ma’lum sifatli o‘zgarishiga olib keladi.

Innovatsion jarayon boshqa sifatli holatga o'tish, eskirib qolgan qoida, vaziyat va ahamiyatlarni qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'ladi. Bir darajali qator yangiliklar umumiyliги innovatsion yaxlitligini tashkil etadi. Yangilik kiritish ichki mantiq va yo'nalishlarga ega bo'lib, u yangilik g'oyasi tug'ilishidan to uning foydalanila boshlanishigacha bo'lgan xarakterlarni rivojlantirish ham innovatsion jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat mantig'ini ifodalaydi. Shu tariqa yangilik kiritish dinamik tizim bo'lib, ichki mantiq kabi vaqt davomida qonuniy rivojlanishi, uning atrof muhit bilan o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Innovatsion jarayoni tuzilishi yangilikning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tib borishi bilan o'zgarib boradi. Shu bilan birga yangilikning dinamik xususiyatlaridan uning natija-yakuni va samarasi bog'liq bo'ladi.

Oliy ta'limda kreativ yondashuvlar asosida o'qitish sifatini oshirish jarayonida quyidagilar muhim sanaladi:

- oliy ta'limda kadrlar salohiyatiga e'tiborni kuchaytirish, professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning kasbiy nufuzini va mavqeyini oshirish;

- ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviyligini ta'minlash, iqtisodiyotning jahon miqyosidagi innovatsion yutuqlarini hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini tubdan yangilash;

- umumbashariy mafkuraviy tamoyillar va xalqimizning boy intellektual merosi, qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy yo'nalishlarini rivojlantirish;

- ta'lim menejmentini takomillashtirish, jamiyatda boshqaruvni rivojlantirish;

- yoshlarni ma'naviy-axloqiy, kreativ, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda, shuningdek sifatli ta'lim olishda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahalla rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish [1,36].

O'zini anglagan, millat ma'naviyatini tushungan insongina xalqini, millatini, Vatanini, oilasini taniydi. Shunday ekan, yoshlarga chuqur nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka, ko'nikmalar hosil qilish, ijtimoiy hayotdagi voqea – hodisalari va muammolariga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish, Vatanni sevish, ajdodlari yaratgan bebaho ma'naviy javohirlarni imkon qadar egallash, ularni asrab – avaylash va boyitish, mamlakatimiz kelajagini, ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotning bugungi holatini chuqur tahlil qilish, jahondagi va mamlakatimizdagi ma'naviy, aqliy bilimlardan foydalanib, voqelikda faol ishtirok etish ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir.

Jamiyatimiz kelajagi ko'p jihatdan ta'lim sohasidagi innovatsion o'zgarishlar, uni jamiyat talablariga javob beradigan darajaga yuksaltirishga yo'naltirilgan ishlarga bog'liq bo'ladi. Bu esa

bo'lajak mutaxassislarni zamon talablarini hisobga olgan innovatsion faoliyatga yo'naltirgan holda raqobatdosh qilib tayyorlashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI/ REFERENCES /

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

[1]. *To'raqulov X.A., Jabborov N.S.* Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 152 b.

[2]. *Маджидова М. Х., Самиева Ш. Х.* Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания //Молодые ученые-развитию Национальной технологической инициативы (Поиск). – 2020. – №. 1. – С. 803-805.

[3]. *Самиева Ш., Нарзуллоева Ф.* OLIY TALIMDA STRATEGIK FIKRLASH VA KREATIV BOSHQARISH ASOSIDA TALIMNI TASHKIL ETISHNING MUHIM YONALISHLARI: Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, pedagogika fanlari nomzodi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 163-177.

[4]. *Mirshayev, U., Sh, S., Cherniavskiy, V., Asadova, S., & Aslanova, N.* (2019). The important tendencies in the development of creative and creative potentials in youth. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(3-3), 497-500.